



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


| | |
|--|-----|
| 1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ..... | 5 |
| 2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ..... | 14 |
| 3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI..... | 21 |
| 4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ..... | 44 |
| 5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI..... | 53 |
| 6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR..... | 60 |
| 7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha)..... | 65 |
| 8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ..... | 72 |
| 9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil)..... | 81 |
| 10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ..... | 87 |
| 11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР..... | 96 |
| 12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 104 |



Nargiza Ibotovna Choriyeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
choriyevanargiza257@gmail.com

SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHIIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

For citation: Nargiza I. Choriyeva. TOURISM POTENTIAL OF SAMARKAND REGION AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846515>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Samarqand viloyatining turizm salohiyati, uning tarixiy-madaniy resurslari hamda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Hududning xalqaro turizm bozoridagi o‘rni, infratuzilma rivoji va yangi turistik yo‘nalishlarning shakllanishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, turizmning iqtisodiy ahamiyati, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi roli va hududiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, turizm salohiyati, infratuzilma, ziyorat turizmi, ekoturizm, gastronomik turizm, mehmonxona xo‘jaligi, turizm iqtisodiyoti, madaniy meros, transport-logistika

Чориева Наргиза Иботовна,

базовый докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается туристический потенциал Самаркандской области, её историко-культурные ресурсы, а также реформы, реализуемые в последние годы. Научно освещаются место региона на международном туристическом рынке, развитие инфраструктуры и формирование новых туристических направлений. Кроме того, анализируется экономическая значимость туризма, его роль в создании новых рабочих мест и вклад в региональное развитие. В результате исследования определены существующие возможности и перспективные направления дальнейшего развития туризма в Самаркандской области.

Ключевые слова: Самарканд, туристический потенциал, инфраструктура, паломнический туризм, экотуризм, гастрономический туризм, гостиничное хозяйство, экономика туризма, культурное наследие, транспортно-логистическая система

Nargiza I. Choriyeva,
Phd student
Uzbek State World Languages University

TOURISM POTENTIAL OF SAMARKAND REGION AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article examines the tourism potential of the Samarkand region, its historical and cultural resources, and the reforms implemented in recent years. The study highlights the region's position in the international tourism market, the development of infrastructure, and the emergence of new tourism направления. It also analyzes the economic importance of tourism, its role in job creation, and its contribution to regional development. As a result, the research identifies existing opportunities and перспективные направления for further development of tourism in the Samarkand region

Index Terms: Samarkand, tourism potential, infrastructure, pilgrimage tourism, ecotourism, gastronomic tourism, hospitality industry, tourism economy, cultural heritage, transport and logistics

1. Dolzarbligi:

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki mamlakatlarning xalqaro maydondagi imijini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston ham boy tarixiy-madaniy merosi, qulay geografik joylashuvi va rang-barang tabiiy resurslari bilan turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, Samarqand viloyati qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasi sifatida turizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun mustahkam asosga ega hududlardan biri sanaladi. Ushbu hudud asrlar davomida ilm-fan, savdo va madaniyat markazi bo'lib xizmat qilgan bo'lib, bugungi kunda ham o'zining noyob tarixiy obidalarini va zamonaviy infratuzilmasi bilan sayyohlarni jalb etib kelmoqda. So'nggi yillarda davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida yangi turistik obyektlar, xizmat turlari va yo'nalishlar shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatining mavjud turizm salohiyatini ilmiy jihatdan o'rganish, uning samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda rivojlanish istiqbollari aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Samarqand viloyatining turizm salohiyati va rivojlantirish istiqbollari mavzusi ilmiy tadqiqotlarda turli metodlar asosida o'rganilgan bo'lib, asosan iqtisodiy tahlil va statistik yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqotlarda analiz va sintez, induksiya, deduksiya, sabab-oqibat, zamon-makon va tizimli yondashuvlar qo'llanilgan; shuningdek, iqtisodiy tahlilning an'anaviy, matematik-statistik usullari va sotsiologik so'rovlar keng ishlatiladi. Samarqand viloyatidagi turistik resurslarni baholashda empirik tahlil (ob'ektlar infratuzilmasi, sayyohlar soni), qiyosiy strategiya bahosi va model asosidagi prognozlar (salohiyatni kelajakdagi yo'nalishlarni aniqlash) ustuvor ahamiyat kasb etadi. Statistika va miqdoriy tahlili turizm oqimi (xorijiy/mahalliy sayyohlar), infratuzilma ko'rsatkichlari va investitsiya jozibadorligini o'rganishga, sotsiologik so'rovlar esa, xizmat sifati, ekoturizm va to'siqsiz turizm muammolarini aniqlashga, Innovatsion yondashuvlar: Mobil dasturlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va hududiy rivojlanish modellarini takomillashtirishga xizmat qiladi va mavzuni nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga imkon beradi.

Samarqand viloyatining turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari mavzusi O'zbekistonning turizm sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarda yuqori e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Mavzu davlat siyosati darajasida bo'lib, unda viloyatning turizm infratuzilmasi, mehmonxonalar soni (10 ta yangi loyiha) va xorijiy turistlar oqimi (2019-yilda 509 ming kishi prognozi) ko'rsatkichlari muhim ahamiyat belgilangan. Ilmiy asarlarda (CyberLeninka va

OEFEEN.uz manbalarida) Samarqandning tarixiy ob'ektlari (ziyosat, gastronomik, ekoturizm), rivojlanish tendensiyalari va muammolari (masalan, uzoq hududlardagi resurslardan foydalanishning pastligi) batafsil o'rganilgan. 2021–2025-yillarda Prezident farmonlari va hokimlik hisobotlarida ziyosat turizmi (50+ ob'ekt), ekoturizm (30+ maskan) va eksport ko'rsatkichlari (2025-yilda 312 mln dollar) kabi istiqbollar ta'kidlangan. Garchi mavzu yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, qishloq va etnoturizm resurslarining to'liq ishga solinmasligi muammo sifatida qayd etilgan; kelajakda raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanishga e'tibor kuchayishi kutilmoqda. 2025-yilgi statistikada 2,1 mln xorijiy va 4,5 mln mahalliy turist jalb etilishi tasdiqlaydi.

3. Tadqiqot natijalari:

Samarqand shahri o'zining navqironligi tabiatining musofoligi qolaversa, butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklari bilan ham dovrug' qozongan desak, mubolag'a bo'lmaydi. "The Huffington post" nashri tomonidan Samarqand shahri jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi shart bo'lgan 50 ta shaharlardan biri deb e'lon qilinishi, ko'plab xorijiy turistlarni yanada jalb etish imkonini yaratadi. Mamlakatimizning sayyohlik salohiyati jahonning turizm rivojlangan davlatlaridan kam emas. Ya'ni, bizda borib ko'rish, ziyosat qilish, zavq olish mumkin bo'lgan turistik ob'ektlar ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent kabi tarixiy shaharlarimizdan tashqari, mamlakatimizning boshqa istalgan hududida ekologik turizm, agroturizm, ziyosat turizmi, gastronomik turizm va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyatlari bor. 2022 yil 15-16 sentyabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining 22-sammiti va 2023 yilda Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasiga mezbonlik qilish uchun aynan Samarqand shahrining tanlangani bejiz emas. Ming yillar davomida ushbu shahar ilm-fan va ta'lim, savdo va innovatsiyalar markazi bo'lib kelgan. 1993 yilda Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. [1, B.1110]

Samarqand viloyatida 2020 yil yakunlariga ko'ra turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni 45 ta bo'lib, xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 17612 kishini tashkil etadi. Samarqand viloyatida jami hududlar bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 144 tani tashkil etib, MDH mamlakatlardan, jami 5327 kishi, uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari, jami 8073 kishi tashrif buyurgan. [2]

O'zbekiston Markaziy Osiyoning eng yirik mamlakatlaridan biri bo'lib, boy tabiiy landshaftlari, o'ziga xos ekotizimlari va qadimiy madaniy merosi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda turizm sohasini rivojlantirish mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, ekologik turizm ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo bo'ylab ekologik muammolar ortib borayotgan bir paytda, O'zbekistonning tabiiy boyliklarini asrab-avaylash va ularni turistik maqsadlarda oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. [3, B.713]

Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, istilo'chilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. [4]

Mamlakatimizda so'nggi yillarda barcha sohalarida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizm sohasi ham bundan mustasno emas. Samarqand viloyatida ham turizmni yanada rivojlantirishga, sayyohlar uchun barcha qulayliklarni yaratishga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Natijada ko'plab yangi-yangi sayyohlik yo'nalishlari, turizm manzillari paydo bo'lyapti. Birgina o'tgan yilning o'zida viloyatda 20 dan ortiq yangi turizm yo'nalishlari tashkil etildi. Samarqandda bugunga kelib ziyosat turizmi ob'ektlari soni 50 tadan oshdi. Shuningdek, 40 dan ziyod gastronomik turizm nuqtalari, 30 ga yaqin ekoturizm maskanlari, 20 ortiq tibbiy turizm muassasalari, qolaversa etnoturizm, agroturizm ob'ektlari tashkil etildi. Bundan tashqari 2022 yilda 148 ta, xonalar soni 3 504 ta, o'rinlar soni 9 219 ta bo'lgan yangi mehmonxona, xostel va mehmon uylari ish boshladi. Joriy yilning o'tgan davrida esa 4 ta (258 o'rinli) mehmonxona, 10 ta (253 o'rinli) xostel va 11 ta (110 o'rinli) oilaviy mehmon uylari foydalanishga topshirildi. [5]

Dunyo bo'ylab xavfsiz turizmni qayta tiklash, ziyosatlarni qayta tashkil etish, turizmdan olinadigan daromadlarni va bu sohadagi ish o'rinlarini ko'paytirish borasida mamlakatlar

tomonidan bir qancha salmoqli ishlar bajarilmoqda. Turizm va sayohat bo'yicha Xalqaro kengashning hisobotlariga ko'ra turizmning dunyo YaIM dagi umumiy ulushi 10.4% yoki 8.3 trln. AQSh dollarini (iqtisodiyotga bilvosita va induksiya ta'sirlarini hisobga olmagan holda turizmning bevosita hissasi-3.2%) hamda dunyo bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining o'ndan biri ushbu sektor hissasiga to'g'ri keladi.

Turizm notovar sektordagi xalqaro savdoning eng yirik obyektlaridan biridir. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, turizm sektori eksporti dunyo eksportida avtomobilsozlik sanoatini ortda qoldirgan holda kimyoviy moddalar hamda yoqilg'i eksportidan keyingi 3-o'rinda turadi. Ko'pchilik rivojlangan davlatlar eksportida turizm yetakchi o'rinni egallaydi. [6, B.622]

Turizm infratuzilmasi va sanoati turizm ga qo'shni tarm oqlarni o'ziga yanada ko'proq tortib, ko'plab kishilarni ish bilan ta'minlam oqda. Turizm sohasiga ko'proq ishchilar jalb qilinm oqda, natijada ko'p sonli ish joylari paydo bo'lishiga olib kelm oqda, bu esa juda muhim masala bo'lib, jam'iyatga foydali bo'lgan hollar ichida birinchi o'rinda turadi.[7, B.68]

Zamonaviy dunyoda turizm turli hodisalar, aloqalar va munosabatlarda namoyon bo'ladi, bu esa uni tasniflash zaruratini keltirib chiqaradi. Turizmni tasniflash – bu uni ma'lum bir amaliy maqsadlarga bog'liq holda bir xil xususiyatlarga ega bo'lgan guruhlariga ajratish jarayonidir. Ushbu yondashuv turizmning murakkab va ko'p qirrali mohiyatini yaxshiroq tushunish va uni boshqarish uchun zarurdir. [8, B.25]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 dekabrda "Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni "Samarqand — yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi PQ-455 sonli qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, yangi turizm infratuzilmasi obyektlari salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, yangidan modernizatsiya qilingan Samarqand xalqaro aeroportida xorijiy aviatashuvchi kompaniyalar uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, hududning transportlogistika tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash va diversifikatsiya qilish masalalariga alohida urg'u qaratilgan. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston olimlari tomonidan Samarqand viloyatining turizm salohiyatini har jihatdan rivojlantirish, xorijiy va mahalliy turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yangi turistik xizmatlar turini yaratish, hududning transport-logistika salohiyatini xalqaro darajadagi sifat ko'rsatkichiga ko'tarish masalalarida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. [9, B. 448]

Bu hol Samarqand ulkan sayyohlik salohiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston tarixiy "Buyuk ipak yo'li"da joylashgan mamlakatlardan biri bo'lib, sayyohlar asosan vatanimizdagi tarixiy obidalar, madaniy me'morchilik maskanlarini ko'rish maqsadida tashrif buyurishadi. Respublikamizning turli shaharlarida joylashgan 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib (shundan 2330 tasi me'morchilik, 3945 tasi arxeologik, 1138 tasi monumental yodgorliklar va 157 tasi diqqatga sazovor maskanlar), ayni paytda O'zbekistondagi 4 ta me'moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan Sayyohlarni asosiy jalb etadigan tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolarining ulkan qismi Samarqand va Buxoro shaharlarida joylashgan [10, B.47]

4.Xulosa:

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyati turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Hududdagi boy tarixiy-madaniy meros obyektlari, zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda turizm sohasiga qaratilayotgan davlat siyosati ushbu yo'nalishda ijobiy natijalarni ta'minlamoqda. Shuningdek, turizm yo'nalishlarining diversifikatsiyasi — ziyorat, ekologik, gastronomik va tibbiy turizmning rivojlanishi hududga tashrif buyuruvchilar sonini oshirishga xizmat qilmoqda. Transport-logistika tizimining takomillashuvi va xalqaro hamkorlikning kengayishi esa Samarqandning global turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlamoqda.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000